



“ILK QADAM” DAVLAT O’QUV DASTURI ASOSIDA BOLALARNI SAVODGA O’RGATISH METODIKASI

Irisboyeva Yo.O`.

*Renessans ta`lim universiteti Pedagogika fanlari va psixologiya
fanlari kafedrası dotsenti*

Tayanch soʻzlar: taʼlim-tarbiya, aqliy tarbiya, maʼnaviyat, tugʻma layoqat, ruhiy tarbiya, rivojlanish, qiziqish, ehtiyoj, minimal talablar, “Men” konsepsiyasi, omil.

Ключевые слова: образование, умственное воспитание, духовность, врожденные способности, духовное воспитание, развитие, интерес, потребность, минимальные требования, концепция «Я», фактор.

Key words: education, mental training, spirituality, innate abilities, spiritual education, development, interest, need, minimum requirements, self-concept, factor.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim-tarbiya berishning asosiy vazifalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni oʻqish va savodga oʻrgatish metodikasi haqida yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье описаны основные задачи обучения дошкольников, методика обучения дошкольников чтению и письму.

SUMMARY:

This article describes the main tasks of teaching preschoolers, methods of teaching preschoolers to read and write.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim-tarbiya berishning asosiy vazifalari. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va maʼnaviy jihatdan shakllantirish, ularning tugʻma layoqati, ruhiy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam taʼlim olishga (maktabga) tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qoʻyilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi ushbu “Maktabgacha taʼlim va tarbiyaning davlat standarti” orqali nazorat qilinadi. Davlat standartlarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya mazmunining asosiy yoʻnalishlari hamda ularning maktabga tayyorlik darajasiga qoʻyiladigan minimal talablar belgilab berilgan



bo‘lib, u davlat hujjati sifatida e’tirof etiladi. Davlat standartlari ko‘rsatkichlarini belgilashda davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, ota-onalar, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismonan sog‘lomligi, qobiliyati, ruhiy rivojlanishi va imkoniyatlari, ya’ni bola shaxsining ustuvorligidan kelib chiqiladi. Bola kishilik jamiyatining sog‘lom va faol a’zosi bo‘lib etishishi uchun odamlar orasida yashashi, insoniyat hayoti va mehnati jarayonida ko‘p asrlardan buyon to‘plab kelinayotgan bilimlarni egallab borishi, kattalar tarbiyasida bo‘lmog‘i lozim. Bolaning xotirasi va kuzatuvchanligi, diqqati va tafakkuri, his-tuyg‘ulari va irodasini mashq qildirish kabi faoliyatlar, odatda murabbiy va tarbiyachilar tamonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining ayrim xususiyatlarini rivojlantirishda bu faoliyatning mazmuni va uning qay darajada uyushtirilganligi katta ahamiyatga ega. Chunki to‘g‘ri tashkil etilgan faoliyat davomida, atrof-dagi kishilar bilan kundalik munosabatda bolaning aqliy, jismoniy va axloqiy rivojlanishi takomillashib boradi. Shuning uchun ham bolalar faolligini bilish, bolada foydali odatlarni shakllantirish, ijobiy xarakter belgilarini rivojlantirish ota-onalar va tarbiyachilarning asosiy vazifasidir. Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko‘nikmasi, kattalar va tengdosh o‘rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun, bola maktabga qadam qo‘yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko‘nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unda o‘z kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda “Men” konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasida “Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti to‘g‘risi”dagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda, ota-onalarning mustaqil ravishda ta’lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, shuningdek, tashkilotga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun, maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta’lim tashkilotida yoki uydayoq maktab ta’limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishga yordam beradi. Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok,



kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi.

Bolalarni savodxonlikka o'rgatishda davlat standartlarining o'rni. Davlat standartlari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, va O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar maktabgacha ta'lim tizimi hamda oilalarda bolani to'laqonli tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirish, uni maktabga samarali tayyorlashda qo'llanishi majburiy bo'lgan davlat hujjati bo'lib hisoblanadi. Davlat talablari 0-7 yoshli bolaning qay darajada rivojlanganligi va egallagan yutuqlarini baholab boruvchi talablar bo'lib, ular bilim, malaka va ko'nikmalar rivojlanishining ko'rsatkichlarini belgilaydi:

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
2. Ijtimoiy - hissiy rivojlanish.
3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari.
4. Bilish jarayonining rivojlanishi.
5. Ijodiy rivojlanish.

Mazkur 5 ta yo'nalish 0 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalarining shakllanishi, nutq, o'qish va savodga tayyorlash darajasini, atrof-olam haqidagi tushunchalarni va qo'yilgan talablarni egallashi uchun asosiy omil hisoblanadi. U maktabgacha ta'lim tizimining mohiyatini belgilaydi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalik qadriyatini saqlagan holda har bir bolaning individual (alohida) rivojlanishini ta'minlashga yo'naltiradi. Davlat talablarining maqsadi:

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish;

- sifatli ta'lim ko'rsatish xizmatlari, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifati va ta'lim faoliyatining tartibini belgilash;

- bola shaxsi asoslarini shakllantirish hamda uning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

- bolaning intellektual shaxs sifatida va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;

- bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;

- bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdir.

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalarining to'g'ri qo'llanilishi har bir insonning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim o'rin tutadi.



Ma'lumki, aholining savodxonligi bugungi kunda jamiyat rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Inson savodxonligi uning kelajak hayotining sifati darajasini belgilaydi va bugungi dunyoning jadal texnik yuksalish davrida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish imkonini yaratadi. Shunday qilib, savodli bo'lish bilimlar kalitiga ega bo'lish deganidir. To'g'ri va ravon nutqqa ega bo'lish murakkab jarayon bo'lib, bola tug'ilganidan boshlanadi va bir nechta omillardan kelib hiqadi. Nutqning rivojlanish jarayonida bola keyingi hayoti davomida rivojlanib va takomillashib boruvchi murakkab bilimlar tizimini egallaydi. Go'dakligida qo'llagan yuz ifodasi va tana harakatlari o'rnini tezda tovushlar, so'zlar va gaplar egallaydi. Shunday qilib, endi ular o'z fikr va hislarini ifoda eta oladilar, shu bilan birga ularga o'zlari so'zlashayotgan o'zga kishilarni tushunish ham zarur bo'ladi. Nutq oilada, keyinchalik, maktab va jamiyatda rivojlanib boradi. Til va savodning rivojlanishi ona tilida ifodalash qobiliyatiga asoslanadi. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" yo'nalishining asosi-so'zlashuv nutqini tinglash va tushunish, kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, yozish malakalarini rivojlantirishdir. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi quyidagi talablardan iborat bo'lgan quyidagi kichik sohalarni o'z ichiga oladi: - nutq va til;

- o'qish malakalari;
- qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi rivojlanishiga quyidagicha davlat talablari qo'yiladi:

- bola nutqni tinglash va tushunish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- bola so'zlashish va muloqot qilishga qodir bo'lishi;
- oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- lug'atni faollashtirish;
- nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish;
- bog'lanishli nutqni shakllantirish;
- ijodiy hikoya qilishni shakllantirish lozim.

Bu kabi talablarni bajarishda quyidagi ko'rsatkich (indikator) larga e'tibor qaratiladi:

- ▶ Bola musobaqalar va munozalarda ishtirok etadi va u erda eshitgan ko'rsatmalarni to'g'ri bajaradi. Ayrim maxsus so'zlarning ma'nosini tushunadi (shifokor bolalarni davolaydi, o'qituvchi bolalarni o'qitadi...).
- Boshqalardan yoki radio, televizor, teatrdan eshitgan hikoyalarni osonlikcha bayon qiladi.
- ▶ Ona tilini juda yaxshi biladi, oddiy, umumiy foydalanishdagi gaplar yordamida fikrini ifodalaydi.

- ▶ Mavjud til tizimi (tovush, so‘z, gap) to‘g‘risida elementar (oddiy) tasavvurga ega.
- ▶ So‘zdan tovushni, unli va undosh tovushlarni ajrata oladi.
- ▶ Narsalarning nomlarini to‘g‘ri aytadi, bir-biri bilan solishtirib, ayrim farqlarini tushunadi.
- ▶ O‘z nutqida uyushiq bo‘laqli, sodda, yoyiq va qo‘shma gaplarning turli xillaridan foydalana oladi.
- ▶ O‘yinchoqlar va buyumlar haqida hikoya tuza oladi.
- ▶ Shaxsiy tajriba, mazmunli rasmlar asosida hikoya tuza oladi.
- ▶ Gaplarni grammatika jihatdan to‘g‘ri tuza oladi.
- ▶ Surat (rasmlar) bo‘yicha mazmunli hikoya tuzadi.
- ▶ Umumlashtiruvchi so‘zlar, antonimlar, solishtirmalardan foydalanadi.
- ▶ Harakatlarni rejalashtirish uchun nutqdan foydalanadi.
- ▶ O‘z tuyg‘ulari va niyatlarini nutqli ifodalab, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda ishtirok etadi.
- ▶ Turli hikoyalarni so‘zlab beradi, hikoyalarni o‘ylab topishga harakat qiladi, qofiya va so‘z o‘yiniga qiziqish bildiradi.
- ▶ Kitoblar, teleko‘rsatuvlardan nutqning turli parchalarini yodlab oladi va ishlatadi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni amalga oshirish uchun tarbiyachi ta‘limga quyidagicha yondashuvi nazarda tutiladi:

- ▶ Musobaqa, munozara va boshqa tadbirlarni tashkil etishi, savollar berishi va bolani to‘g‘ri javob berish yoki ko‘rsatmalarni bajarishga yo‘naltirishi lozim.
- ▶ Bolalarning yangi so‘zlardan foydalanish va ularning ma‘nosini bilish istaklarini rag‘batlantirishi kerak.
- ▶ Bolaga muntazam ravishda hikoyalar aytib turishi, teatrga olib borishi, bola bilan ko‘rganlarini muhokama qilishi lozim. Rasmga qarab mazmunli hikoya tuzishga, nutqni rivojlantirish bo‘yicha maxsus trening va o‘yinlarni o‘tkazishga yordam berishi, qofiya va so‘z o‘yinlari, she‘rlarni ifodali o‘qish, ertaklarni aytib berish, shaxsiy hayotdan hikoya tuzishlariga ko‘maklashishi kerak.
- ▶ Bolani ijodiy dramatik, rol ijro etish o‘yinlarida ishtirok etishga jalb qilishi lozim.

O‘qish malakalarini egallash nomli kichik sohada quyidagicha talab qo‘yiladi:

Bola bosma materiallarga qiziqish bildiradi, harflar va ramzlarni ajrata oladi.



Bola yozish ko'nikmalarini o'rganadi. Oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Indikatorlari (ko'rsatkichlar):

- ▶ Ko'p vaqt davomida kitob bilan o'tirib, uni tomosha qilishi mumkin, kitobni to'g'ri holatda ushlaydi.
- ▶ Ayrim ma'lumotlarni yig'ish uchun kitoblardan foydalanadi. Bir necha mashhur asarlar va adabiy qahramonlarni aytib berishi mumkin.
- ▶ Adabiy asarlarning ayrim parchalarini so'zlab beradi.
- ▶ Alifboni biladi.
- ▶ Bo'g'inlar bo'yicha o'qishi mumkin.
- ▶ Yozishning barcha elementlarini biladi (ilmoq, gajak, chiziqchalar, tayoqchalar).
- ▶ Yozish ko'nikmalarini o'rganadi.
- ▶ Namunadan 2-3 ta so'zlarni olib yozadi va chizadi.
- ▶ O'z ismini va 2-3 ta so'zlarni bosma harflarda mustaqil ravishda yozadi.
- ▶ Gapni so'zlarga bo'ladi, so'zlarni bo'g'inlarga bo'ladi.
- ▶ Ma'lum tovushlarning o'rnini aniqlay oladi (so'zning boshida, o'rtasida va oxirida).
- ▶ So'zda tovushlar ketma-ketligini aniqlaydi.
- ▶ Bo'g'inlardan so'zlar, so'zlar ishtirokida gap tuza oladi;
- ▶ Tovushlarni eshitib farqlay oladi.

Tarbiyachilar pedagogik tajribaga ega bo'lsalar, o'z tarbiyalanuvchilarining psixologik rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilsalar, albatta, bolalarda ijobiy o'zgarish bo'lishiga erishadilar. Chunki, o'qitish va tarbiyalash tajribasi boladagi tug'ma xarakter belgilarini o'zgartirishda g'oyat katta imkoniyat manbaidir. Lekin bunday o'zgarishlarning chegarasi va pedagogdan talab qilinadigan mehnat o'lchovi, albatta, xilma-xildir. U yoki bu bola shaxsining o'ziga xosligini, uning boshqa odamdan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasi individuallikdir. Individuallik temperamentda va xarakter xususiyatlarida, odatda, qiziqishda, bilish jarayonlariga oid fazilatlarida (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur) qobiliyatda, faoliyatning shaxsga xos uslubida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Psixolog suhbat davomida bolaga qilinayotgan ishning maqsadi va natijasi haqida ma'lumot berishi, suhbat mazmuni sir tutilishini aytishi va o'z navbatida bunga qat'iy amal qilishi lozim. Suhbat davomida tashqi muhit ta'siri ham e'tiborga olinishi zarur, chunki tinch va osoyishta muhit bolada o'z kuchiga ishonish hissini tug'diradi, jiddiylikka da'vat etadi, qolaversa, muomala madaniyatiga o'rgatadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablariga olti yoshli bolalarning dastlabki kundan boshlab maktab sharoitiga



moslash jarayonini o'rganish muhim sanaladi. Ko'pgina hollarda olti yoshli bolalarda bilish jarayonlarining etarli darajada rivojlanmaganligi, ijtimoiy moslashuvning shakllanmaganligi ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Xulosa qilib aytganda ta'limiy faoliyatlar bolaning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o'qish, yozishga doir malaka va ko'nikmalarini boyitib borish kabi aqliy imkoniyatlarining ta'lim talablariga munosib tabiiy shakl, o'yinlar yordamida rivojlantirib borishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. Toshkent-2022 yil.
2. Mirjalolova L. Bolalarning so'z boyligini ertaklar asosida oshirish. – Toshkent, 2008 yil.
3. Ирисбаева Ё. У. Связная речь-главное достижение в речевом развитии детей дошкольного возраста //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.
4. Musaev A. Technologies for organizing independent education of students in a digital educational environment //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
5. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
6. Irisbayeva Y. Professional readiness of future educators to interact with children of preschool age // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 7.